

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

DIYAROVA IRODA

5140800-Pedagogika va psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr
malakaviy darajasini olish uchun tayyorlangan

«PEDAGOGIKA KOLLEJI O'QUVCHILARIDA TOLERANTLIK
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH»
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar

D.T.Usmonova

Navoiy -2014

**Navoiy davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
bitiruvchisi Diyarova Irodaning 5140800-Pedagogika va
psixologiya yo`nalishi bo`yicha bakalavr malakaviy darajasini olish
uchun yozgan «Pedagogika kolleji o`quvchilarida tolerantlik
madaniyatini shakllantirish» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

XX asr insoniyatga katta ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlar, ya'ni mustaqil davlatlar sonining ortib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, xalqaro munosabatlarining integratsiyalashuvi kabilar bilan birga hal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy va xalqaro kelishmovchiliklarning og'ir yukini, milliy biqlik, buyuk davlatchilik shovinizmi, diniy ekstremizm va fundamentalizm singari illatlarni meros qilib qoldirdi. Bularning barchasi tolerantlik madaniyatini umumbashariy qadriyatga aylantirish masalasining qanchalik muhimligini ko'rsatib turibdi.

Diyarova Irodaning bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, 4 paragraf, xulosa, glossariy, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishlanganlik darajasi keng tahlil etilib, tadqiqotning maqsadi, ilmiy farazi, vazifasi, nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Tadqiqotchi o'z oldiga pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish yo'llarini aniqlash va amaliyotga tatbiq etishni maqsad qilib qo'ygan.

Talaba izlanish jarayonida tolerantlik tushunchasi, uning lug'viy ma'nosi, mutafakkir olimlarimizning bu boradagi fikrlarini o'rganib, nazariy tahlil qilgan. Shuningdek, Pedagogika kollejlarida tashkil etuvchi tarbiyaviy faoliyat etnik, irqiy, kommunikativ, gender, diniy, fiziologik, millatlararo, shaxslararo tolerantlik turlari bilan uyg'un holda amalga oshirilishi natijasida kollej o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish uchun ularda insoniylik, refleksivlik, javobgarlik, moslashuvchanlik, o'z-o'ziga ishonch, o'z-o'zini boshqara olish, xilma-xillik, persepsiya, empatiya, hazilkashlik kabi ijobiy sifatlarni tarkib toptirish lozimligini ko'rsatib bergan.

Tadqiqotchi mavzuni ishlash davomida ko'plab ilmiy va uslubiy, pedagogik adabiyotlardan foydalangan.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish mobaynida o'zini mas'uliyatli tadqiqotchi sifatida ko'rsatdi.

Ushbu bitiruv malakaviy ish yakunlangan, mustaqil ishlangan va o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishgan. U O'zbekiston Respublikasi DAK ning bitiruv malakaviy ishiga qo'yilayotgan barcha talablarga javob beradi. Ushbu ishni himoyaga tavsiya etaman.

**Navoiy davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya
kafedrasi o'qituvchisi**

N.R.Sharipova

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I BOB	PEDAGOGIKA KOLLEJI O'QUVCHILARIDA TOLERANTLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY MASALALARI	8
1.1.	Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish - pedagogik muammo sifatida	8
1.2.	Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari	25
II BOB	PEDAGOGIKA KOLLEJI O'QUVCHILARIDA TOLERANTLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY JIHATLARI	
2.1.	Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish yo'llari	30
2.2.	Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish samaradorligi	43
	XULOSA	48
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	49
	ILOVALAR	53
	GLOSSARIY	56

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Globallashuv jarayonida insoniyat hamjamiyati oldida paydo bo'layotgan ko'plab muammolar orasida tolerantlik madaniyati eng asosiy o'rinlardan birini egallaydi. XX asr insoniyatga katta ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlar, ya'ni mustaqil davlatlar sonining ortib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, xalqaro munosabatlarining integratsiyalashuvi kabilar bilan birga hal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy va xalqaro kelishmovchiliklarning og'ir yukini, milliy biqqlik, buyuk davlatchilik shovinizmi, diniy ekstremizm va fundamentalizm singari illatlarni meros qilib qoldirdi. Bularning barchasi tolerantlik madaniyatini umumbashariy qadriyatga aylantirish masalasining qanchalik muhimligini ko'rsatib turibdi.

Tolerantlik har bir insonning o'z fikri, nuqtai nazari, har qanday boshqa madaniyat, dunyoqarashni, e'tiqodni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishi, turli millat va elat vakillarining birga, ahillikda yashashga intilishidir. Tolerantlik madaniyatining tarixiy-ma'naviy negizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ayniqsa, O'zbekiston xalqining milliy mentalitetiga xos bo'lgan mazkur qadriyat o'zida ham umuminsoniy, ham mintaqaviy va milliy jihatlarni chambarchas bog'liqlikda aks ettiradi. Prezident Islom Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, "Ming yillar davomida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi...

Ayni shu zaminda ko'p asrlar mobaynida jahon madaniyatlari dunyo miqyosida bir-birini boyitgan. Bu yerda ko'chmanchi xalqlar o'troq xalqlar bilan, eronlik qabilalar turk qabilalari bilan, musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar bilan ko'p asrlar birga yashab kelganlar...

Movoraunnahrning musulmon madaniyati etnik sabr-toqat va bag'rikenglik ruhini o'zida aks ettirdi. Uning Forobiy va Ibn Sino asarlarida o'z in'ikosini topgan

ideali - Fozil kishilar shahri nafaqat diniy asosda, balki madaniy va axloqiy negizida ham uyushgan odamlarning hamjamiyatidan iborat bo'lganligi tasodifiy xol emas"¹.

Globallashuv va jamiyatni isloh etish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab etadi. Dunyo davlatlari orasida O'zbekiston Respublikasida birinchilardan bo'lib umumbashariy tavsifga ega mazkur muammoni hal etishga doir konseptual-nazariy asoslar yaratildi va tizimli tarzda amaliyotga tatbiq etib borilmoqda. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda"². Mazkur ezgu maqsadni hayotda o'z isbotini topishida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Islahotlarning amaliy tatbiqi mustaqillik yillarida respublikamizda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosi sifatida tolerantlik tamoyili asos qilib olinganligi mazkur sohadagi yutuqlarimizning garovi bo'lib xizmat qilganligini ko'rsatib turibdi. Xuddi shuningdek, uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarda ham tolerantlik fazilatini shakllantirish milliy tarbiyamizning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Zamonaviy shart-sharoitlar o'sib kelayotgan avlodni xilma-xillikka chidamli, boshka fikrlarni eshita olish va ularni hurmat qilish, bir so'z bilan aytganda, tolerantlik ruhida tarbiyalashni taqozo etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasn. Komil insonni tarbiyalash va ularni tolerantlik ruhida tarbiyalash masalasi Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Unsurul Ma'aliy Kaykovus, Husayn Voiz Koshifiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniylar tomonidan o'rganilgan.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 1998. - B.528-530

² Barkamol avlod orzusi. - T.: Sharq, 1999. - B. 10.

Faylasuf, sotsiolog, psixolog olimlardan I.Karimov, Z.R.Qodirova, A.J.Sharipov, V.A.Alimasov, Sh.O.Madayeva, E.K.Karimova, Z.Xusniddinov, N.S.Safayev, A.G.Asmolov, B.E.Riordon, R.R.Valitova kabi olimlarning ishlarida tolerantlikning falsafiy, sotsiologik va psixologik jihatdan yoritib berilgan.

Pedagog olimlardan D.J.Sharipova, M.Quronov, V.Andriyanova, F.R.Dodirova, G.Akramova, R.Meditova, Z.Saliyeva, G.Aripova, B.S.Gershunskiy, O.B.Skryabina, V.S.Kukushin, O.O.Kashenko, I.V.Mirotvorskayalarning ishlarida ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarida tolerantlik fazilatini shakllantirishning pedagogik shart- sharoitlari yoritib berilgan.

Biroq pedagogika kollejlari o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish masalasi alohida tadqiq etilmagan. Ana shu sababli biz bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini **“Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish”** deb nomladik.

Tadqiqotning maqsadi - pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish yo'llarini aniqlash va amaliyotga tatbiq etish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish muhim pedagogik muammo ekanligini asoslash.
2. Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik o'ziga xosliklarini yoritib berish.
3. Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish yo'llarini ko'rsatib berish.
4. Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish samaradorligini baholash.

Tadqiqot ob'ekti: pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti - Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish mazmuni, pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari va yo'llari.

Tadqiqot metodlari:

- **nazariy:** muammoga doir falsafiy, tarixiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik adabiyotlar; pedagogika kollejlarning me'yoriy-huquqiy asoslari; ish rejalarini o'rganish va tahlil etish;

- **empirik:** shaxsiy tajribani retrospektiv tahlil etish; pedagogik tajribani umumlashtirish; pedagogik jarayonni kuzatish; o'quvchilar faoliyati natijalarini tahlil etish; pedagogik eksperiment, anketa, test, matematik-statistika.

Tadqiqotning metodologik asosi: Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari umumjaxon Deklaratsiyasi", "Tolerantlik tamoyili Deklaratsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida bayon etilgan tolerantlik madaniyatini shakllantirishga doir fikrlar, insonparvarlik pedagogikasi g'oyalari, shaxsga yo'unaltirilgan ta'lim nazariyasi, refleksiv va texnologik yondashuv qoidalari va mezonlari.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Agar:

- pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish muhim pedagogik muammo ekanligi asoslansa;

- pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari yoritib berilsa;

- pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish yo'llari ko'rsatib berilsa;

- pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllanganligini aniqlashga doir metodika ishlab chiqilsa, mazkur jarayonning samaradorligi ortadi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish muhim pedagogik muammo ekanligi.

2. Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari.

3. Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish

yo'llari.

4. Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish samaradorligi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

1. Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish yo'llari ko'rsatib berildi.

2. Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllanganligini aniqlashga doir metodika ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati "tolerantlik" tushunchasining falsafiy, psixologik va pedagogik jihatlariga doir yondashuvlarning tizimlashtirilganligi; pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik fazilatini shakllantirishga doir zamonaviy yondashuvlarning o'rganilganligi va tahlil etilganligi kabilarda o'z aksini topgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa, pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik fazilatini shakllantirishga doir shakl, metod va vositalardan pedagogika kollejlari ta'lim-tarbiya jarayonida keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalaridan pedagogika sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, pedagogika kolleji o'qituvchilari, talabalar foydalanishlari mumkin.

Ishning tuzilishi. BMI ikki bob, to'rtta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar hamda glossariydan iborat.

I BOB PEDAGOGIKA KOLLEJI O'QUVCHILARIDA TOLERANTLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY MASALALARI

1.1. Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish - pedagogik muammo sifatida

Tolerantlik; (**lotLo1egapya** - chidam, sabr-toqat), bag'rikenglik - o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr- mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli, chidamli bo'lish. Bu bir-biriga o'xshamagan odamlarning birga ahillikda yashashidir. Biror- bir insonda yoki biror-bir begona madaniyatda bizga nimadir yoqmasligi mumkin, biroq o'zgalarning huquq va manfaatlariga ziyon yetkazmasa, joriy qonunlarni buzmasa ularning mavjudligi va rivojlanishini tan olishimiz kerak. YA'ni tolerantlik bu o'zgalarning fikri, qarashlari va hatti- harakatiga passiv, tabiiy ravishda buysunishni anglatmaydi. Balki alohida odamlar, turli guruhlar, xalqlar, ijtimoiy guruhlar o'rtasida bir-birini tushunish, ijobiy hamkorlik yo'lidagi faol axloqiy nuqtai nazar va psixologik hamkorlikni anglatadi³.

Ijtimoiy ishga doir lug'at-ma'lumotnomada esa: "Tolerantlik - ijtimoiy ishning boshqaruv tamoyili, individlar, guruhlar va ijtimoiy hamjamiyatlar o'rtasidagi madaniy, irqiy va boshqa tafovutlarni tan olish, odamlarning tashqi qiyofasi, hatti-harakati, qadriyatlar yo'nalishi va ulardagi farqlarga nisbatan bag'rikenglikdir"⁴, deyilgan.

"Tolerantlik" tushunchasi uzoq asrlar davomida shakllandi va hozirgi vaqtda ham turli belgilar bilan to'ldirib borilmoqda. Tolerantlik tushunchasi turli madaniyat va xalqning tarixiy tajribasi bilan bog'liqlikda xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. O'zbek tilida nashr etilgan lug'atlarda "tolerantlik" tushunchasining "bag'rikenglik" tushunchasi bilan sinonim sifatida ishlatilish holati ko'zga tashlanadi: "Bag'rikenglik - o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvatli, g'amxo'r, saxiy, kengfe'lli bo'lgan, ana shunday ma'naviy fazilatlariga ega

³ Qarang: Falsafa: ensiklopedik lug'at. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. - B.260-261; Tarbiya: (ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya). / Tuzuvchi M.N.Aminov. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. - B.416-417.

⁴ Slovar-spravochnik po sotsialnoy rabote. / Pod.red. prof. ye.I.Xolostovoy. - M., 1997. - S.366.

kishilarni ifodalovchi tushuncha. Bag'rikenglik o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlariga hurmat- ehtiromda bo'lish, muomala-munosabatda kamsitish va tahqirlashlarga yo'l qo'ymaslik, insoniylikni hamma narsadan ustun hisoblab, jamoada, ish joylarida, mahalla-ko'yda bunga rioya etishni anglatadi. Mazkur tushuncha turli dindagi, turli millat va elatlarga mansub kishilarning bir mamlakat doirasida, yagona davlat tarkibida bahamjihat, tinch-osoyishta yashashini ifoda etadi"⁵.

Xuddi shunday boshqa xalqlarda ham mazkur tushunchaning o'ziga xos ta'riflari mavjud. Quyida A.Ro'ziyev tomonidan amalga oshirilgan tasnif asosidagi dunyo tillarida tolerantlikni ta'riflovchi atamalarning lug'aviy ma'nolarini keltirib o'tamiz:

1) **tolerance** (*ingl.*) - muruvvatli, sabr-toqatli bo'lishga tayyorlik; **to tolerance** - sabr-toqatli bo'lish, hech bir ta'qiqlashlarsiz o'z fikrlarini namoyon qilish huquqini berish;

2) **tolerance** (*frans.*) - boshqalar bizlarga qaraganda yaxshiroq va mukammalroq fikrlashlari mumkinligiga bo'lgan qat'iy ishonch;

3) **tolerancia** (*isp.*) - o'z fikrlari va g'oyalaridan ham mukammalroqlari borligini tan olish;

4) **kuan rong** (*xit.*) - boshqalarni boricha qabul qilish va boshqalarga bag'rikeng munosabatda bo'lish;

5) **tasamul** (*arab.*) - ko'ngilchanlik, rahm-shafqatlilik, kechirimlilik, boshqalarni boricha qabul qilish va kechirish;

6) **tolerantnost** (*rus*) - sabrli bo'lish (o'zini tuta bilish, toqatli bo'lish, har qanday sharoitda murosa qila olish), boshqalarning borligini qabul qilish va tan olish, boshqalarga yoki biror narsaga munosib yoinki munosib emasligini anglash, tan olish⁶.

Tolerantlik, yangi "bag'rikenglik" tushunhasi o'ziga xos sinonim va antonimlarga ega bo'lgani holda, manbalarda turlicha izohlanadi. O'zbekiston

⁵ Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. - T.: Fafur g'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. - B.68.

⁶ Ruziyev A. Referent guruh va ilk o'spirinlardagi tolerantlik masalasiga ijtimoiy-psixologik yondashuv. J. Xalq ta'limi. -2010, №6. - B. 97-98.

Milliy Ensiklopediyasida unga: “Bag’rikenglik – o’zgarar turmush tarzi xulq atvori, odatlari, his-tuyg’ulari, fikr-mulohazalari, g’oyalari va e’tiqodlariga nisbatan toqatli bo’lish”, –deb ta’rif berilgan. Bu bilan bag’rikenglik insonning ichki ruhiy holati uning ongi, haqiqatgo’yiligi ko’tarinki kayfiyati, ishga munosabati, salomatlik darajasi, qiziqishi, ishonchi, xavfsizligi, qo’rquv hissi, ochko’zligi, javobgarlikni o’z zimmasiga olishi, ishq muhabbati, kuchliligi, insonlar haqiqatni ochiqdan ochiq gapira olishi yetakchi bo’la olishi, sustkashligi, tabiatan o’z hususiyatlarini muvofiqilashtira olishi, muloqot va munosabatga yengil kirisha olishi ,ruhiy tetikligi kabilar ekanligi tasdiqlanadi.

2.2. Pedagogika kolleji o’quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish samaradorligi

Ishning navbatdagi bosqichida esa, pedagogika kolleji o’quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirishga doir tajriba-sinov ishlari samaradorligi o’rganildi.

Pedagogika kolleji o’quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirishga doir tajriba-sinov ishlarini tashkil etish uchun dastlab tadqiqot faraziga mos metodika ishlab chiqildi. Tajriba-sinov ishlari metodikasi tajriba-sinov ishlari bosqichlari, tajriba-sinov ishlarini o’tkazishga doir tarqatma materiallar hamda tajriba-sinov metodlarini o’z ichiga qamrab oldi.

1. Asoslovchi bosqich. Mazkur bosqichning maqsadi pedagogika kolleji o’quvchilarida tolerantlik madaniyatining shakllanganligini dastlabki tashxis etish. Mazkur bosqichda quyidagi vazifalar hal etildi:

- tayyorlov - tashxisning maqsad, vazifa, mezon va metodlari aniqlandi;
- izlanishli - tashxis ob’ektlari o’rganildi va olingan axborotlar to’plandi;
- tahliliy - olingan natijalar miqdor va sifat jihatdan tahlil etildi, ular izohlandi;
- izohli - rejalashtirilgan ishlarni o’tkazishga ta’sir etuvchi pedagogik ta’sirlarning majmuaviy o’lchovi aniqlandi.

2. Tajriba bosqichi. Maqsad - pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish. Tayyorlov bosqichida tashxis etilganlari asosida pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish yo'llari ishlab chiqildi. Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish yo'llari asosida o'quvchilar bilan faol ish olib borildi.

3. Umumlashtiruvchi bosqich. Maqsad - barcha o'tkazilgan tajriba- sinov ishlarining yakunini chiqarish. Tahliliy bosqichda tajriba-sinov ishlari va olingan natijalar tahlil etildi. Izohli bosqich asosida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlariga doir tavsiyalar ishlab chiqildi.

Muammoni tadqiq etishga yo'naltirilgan amaliy faoliyat bir necha bosqichda amalga oshirildi. Dastlab amalga oshirilishi zarur bo'lgan maqsad va vazifalarning mohiyatiga tayangan holda tajriba-sinov ishlarining umumiy davri va bosqichlari belgilandi. Bosqichlarning begilanishida quyidagi tamoyillar ustuvor bo'ldi:

1. Har bir bosqichda aniq maqsad va vazifalarning amalga oshirilishiga erishish.

2. Bosqichlar o'rtasida o'zaro mantiqiy bog'liqlik hamda uzviylikning mavjud bo'lishini ta'minlash

Shu bilan birga tajriba-sinov ishlari jarayonida pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatining shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlari ham aniqlandi.

Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllanganlik darajasi ko'rsatkichlari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

- 1) fikrning keskinligi va moslashuvchanligi;
- 2) tashqi ta'sirlardan ximoyalana olishning barqarorligi;
- 3) shaxslararo o'zaro harakat tavsifi.

Fikrning keskinligi va moslashuvchanligi individual faoliyatning integrativ-mazmunli yo'nalganligi, mazkur faoliyat me'yorlari bilan bog'liqlikda yuzaga keluvchi muammolarni hal etishda intellektual faoliyat yo'nalganligining alohida harakatlari ahamiyati anglanishi sifatida tushuniladi. Tanqidiy fikrlovchi shaxs muammo yuzasidan shaxsiy qarorlar qabul qila oladi va uni aniq dalillar bilan

asoslay oladi.

Barqarorlik shaxsiy sifat tarzida atrof-muhit va ichki olam harakatini tashkillashtirishdir. Kishilar o'z xulq-atvori nuqtai nazaridan turlicha barqarorlik darajasiga ega bo'ladilar. Mazkur daraja ko'p jihatdan ichki va tashqi ta'sirlarga bog'liqdir. Himoyalanganlikning barqarorligi shaxsning tashqi salbiy ta'sirlardan muhofazalana olishiga imkon beradi, hayot va faoliyatning samaradorligini ta'minlaydi, uning rivoji va takomillashuviga yordam beradi.

Kommunikativ harakat tavsifi o'quvchining turli ziddiyatli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal etishi, birgalikda hamkorlikdagi faoliyatga tayyorligini talab etadi.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllanganligining namoyon bo'lishining turli darajalari tavsifiy belgilari aniqlashtirildi:

1. Yuqori daraja mezonlari: o'quvchilarning o'z kuch va imkoniyatlariga ishonish; tanqidiy fikrlay olish; boshqa kishilarning ichki dunyosining o'ziga xosligini e'tirof etish; boshqalarning qayg'usiga hamdard bo'la olish, oliyjanoblik, voqealarni emotsional baholay olish; o'z-o'zini tanqid qila olish, xatolarga yo'l qo'yishi mumkinligini e'tirof eta olish.

2. O'rta daraja mezonlari: olam va uning turfa xilligini e'tirof etish, hayotiy vaziyatlarda muqobil xulq-atvor ko'nikmalariga ega bo'lish; ijtimoiy fikrni hisobga olgan holda qat'iy qarorlar qabul qila olish; muloqotga erkin kirisha olish

3. Past daraja mezonlari: muqobil fikrlarni e'tirof etish va ularning xato bo'lishini anglay olmaslik; voqelikka nisbatan sust va befarqlik; shaxsiy fikrlari bilan bog'liqlikda juz'iy qarorlar qabul qila olish; tanqidiy fikrlay olmaslik; shaxsiy fikrini ochiq bayon etmaslik; o'zaro birgalikdagi harakatga moyil bo'lmaslik.

. Tajriba-sinov ishlari jarayonida suhbat, so'rovnoma(1 -ilova), pedagogik vaziyatlarni hal etish(2-ilova)dan foydalanildi.

Suhbatlar va so'rovnoma jarayonida quyidagi savollardan foydalanildi:

1) boshqalarning fikrlarini bilan eshita olish kishida qanday sifatlar mavjud

bo'lishi lozim?

2) sizga qanday holatda hamsuhbatingizning fikrini tinglash qiyinlik tug'diradi?

3) nima uchun ba'zi insonlar o'zlarining nuqtai nazarlariga qarama- qarshi fikrlarni qabul qila olmaydilar?

4) do'st bo'lish uchun albatta bir xil yoshda bo'lish shartmi?

5) madaniy jihatdan turli-tumanlik ijobiy tavsifga egami yoki salbiy?

6) o'zga millat vakillariga nega hurmat bilan munosabatda bo'lish lozim?

7) o'g'il bolalarning qizlarga qaraganda o'zlarini ustun qo'yishlari to'g'rimi?

8) boshqa dinga e'tiqod qiluvchi kishilarni o'z diniga e'tiqod qilishga da'vat etish to'g'rimi?

Bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishda pedagogik vaziyatlardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Biz quyida ana shunday pedagogik vaziyatlardan ba'zilarini keltirib o'tamiz:

I. O'qituvchi o'quvchilarga topshiriq berib bo'lgach, o'quvchilardan biri "Men topshiriqni bajarishni xohlamayman!" degan fikr bildirdi.

- Mazkur vaziyatdagi o'qituvchining munosabatini qanday baholaysiz? Javoblardan birini tanlang yoki yettinchi raqam ostida o'z javobingizni yozing.

1. "Xohlamasang - majburlaymiz".

2. "Bo'lmasa, mashg'ulotga nima uchun kelding?"

3. "O'zingga qiyin bo'ladi, hech narsa o'rganmasdan qolasan".

4. "O'zingga o'zing hisobot bergin: "Men uchun bu nima oqibatga olib keladi"".

5. "Nima uchun bajarishni istamayotganingni senga tushuntirib bo'lmaydi".

6. "Kel, birga o'tirib muhokama qilamiz, balki sen xaqdirsan!".

7 . _____ —

II. Ba'zan o'quvchilar ayrim sinfdoshlariga nisbatan o'zining yomon munosabatda ekanligini ochiq namoyish etishadi: "Men u bilan birga ishlash

(o'qish)ni xohlamayman ”.

- Mazkur vaziyatda o'qituvchi qanday munosabat bildirishi lozim? Quyidagi javoblardan birini tanlang yoki yettinchi raqam ostida o'z javobingizni yozing.

1. “Ishlasang nima bo'ladi?”
2. “Hech qayoqqa ketmaysan, u bilan birga ishlaysan”.
3. “Bu sen tomoningdan qilinayotgan axmoqlik”.
4. “Bunday gapingdan so'ng, u ham albatta, sen bilan ishlashni xohlamaydi”.
5. “Nima uchun?”
6. “Men o'ylaymanki, sen noxaqsan!”.
- 7 . _____

III. O'quvchi o'qituvchiga dedi: “Men yana daftirimni olib kelishni (uy vazifasini bajarishni) unutibman

- Mazkur vaziyatda o'qituvchi o'quvchiga qanday munosabat bildirishi kerak? Quyidagi javoblardan birini tanlang yoki yettinchi raqam ostida uz javobingizni yozing.

1. “Uff... yana tashlab keldingmi?”
2. “Bu holat senga mas'uliyatsizlik bo'lib ko'rinmaydimi?”
3. “O'ylaymanki, tez orada senda ishga mas'uliyatli munosabat paydo bo'ladi”.
4. “Nega ekanligini bilishni xohlayman”.
5. “Sen bunday holatga yo'l qo'ymasliging kerak”.
6. “Nima deb uylaysan, nega men har safar senga bu haqida eslatib o'taman?”
- 7 . _____

Respondentlarga mazkur tziyatlatsh undivipual xzl etish tottutrit berildi. Vaziyatlarni hal etish uchun berilgan vaqt tugagach, javoblar yig'ishtirib olindi va tahlil etildi. Javoblarni tekshirishda uch xil mezoniga asoslanildi: “aniq to'g'ri”, “qisman to'g'ri”, “xato”.

So'rovnoma va pedagogik vaziyatlarga berilgan javoblar asosida pedagogika

kolleji o'quvchilaridan tolerantlik madaniyatini shakllanganligining quyidagi umumlashgan natijasini hosil qildik (2.2.1- jadval):

2.2.1-jadval

Pedagogika kolleji o'quvchilaridan tolerantlik madaniyatini shakllanganligi samaradorligi

Tajriba-sinov guruhlari	O'quvchilar soni	Darajalar		
		YUqori	o'rta	Past
Tajriba guruhi	56	18	28	10
Nazorat guruhi	44	7	14	23

XULOSA

Tolerantlik madaniyati deganda, uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchilarda tolerantlikka doir tushunchalar, sifatlar, odatlar, xulq-atvor, qadriyatlar tizimini tarkib toptirishga qaratilgan, maqsadli yo'naltirilgan, izchil, tizimli pedagogik jarayon tushuniladi. Tolerantlik madaniyatiga ega shaxs deganda, o'zini va yon atrofdagi kishilarni tushuna oladigan, shaxsiy fikr va qarashlarni, qadriyatli yo'nalganlik va ideallarni inkor etmaydigan kishi tushuniladi.

Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish uchun ularda quyidagi sifatlarni tarkib toptirish lozim: insoniylik, refleksivlik, javobgarlik, moslashuvchanlik, o'z-o'ziga ishonch, o'z-o'zini boshqara olish, xilma-xillik, persepsiya, empatiya, xazilkashlik.

Pedagogika kollejlarda tashkil etuvchi tarbiyaviy faoliyat etnik, irqiy, kommunikativ, gender, diniy, fiziologik, millatlararo, shaxslararo tolerantlik turlari bilan uyg'un holda amalga oshirilishi lozim.

Pedagogika kolleji o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirishda ekzistensial, devirsifikatsion, kognitiv, bixiveorizm, dialogik, fasilativ, ijgimoiy-madaniy yondashuvlarning hamda integratsion, institutsional, modulli va fanlararo modellarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogika kolleji o'quvchilarini tolerant xulq-atvorga odatlantirish hamma

vaqt uni harakatga undovchi motivlar yig'indisidan iborat motivatsion jihatlarini aniqlab olishni va ularda barqaror ehtiyojlar ob'ektiga aylantirishni talab etadi. O'quvchilarda ular tomonidan anglangan ehtiyoj sifatida tushuniladigan tolerant xulq-atvorga ichki motivni shakllantirish, ijtimoiy muloqot me'yor va qoidalarini o'zlashtirish, ijtimoiy yo'naltirilgan oriyentatsiyani shakllantirish, voqea-hodisalarni tanqidiy baholay olish qobiliyatini rivojlantirish, voqelikni rivojlanib borishining ehtimoliy variantlarini bashorat qilish va shu asosda mustaqil qaror qabul qila olish, xilma-xil konstruktiv muloqot shakllarida ishtirok etish hamda tolerantlik nuqtai nazaridan muloqotning yangi shakllarini loyihalash va amalga oshirishga doir metod va usullardan foydalanish yaxshi samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. — O'zbekiston, 1992.
2. Karimov. I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari - T.: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni — xalq, millatni — millat qilishga xizmat etsin. 7-jild. - T.: O'zbekiston. 1999.
4. Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2009.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni// "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" kitobida. - T.: Sharq, 1997. - B. 20-29.
7. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" kitobida. - T.: Sharq, 1997. - B.31 -61.
8. Barkamol avlod orzusi.-T.: Sharq, 1999.
9. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar - T.: O'zbekiston, 2001.
10. Абакумова И. В., Эрмаков П. Н. О становлении толерантной личности в поликультурном образовании// Вопросы психологии. - М., 2003. - № 3. - С.78-82.
11. Абдулкаримова Г.Г. Об опыте работы по формированию у детей этнической толерантности// Дополнительное образование. - М., 2002. - № 2. С.49-54.
12. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: Xalq merosi, 1993.
13. Avesto - tarixiy-adabiy yodgorlik. A.Mahkam tarjiması. - T.:Sharq, 2001.
14. Akramova G.R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik tushunchalarini shakllantirishning didaktik asoslari: Pedagogika fanlari

nomzodi. ... diss. —Т., 2006;

15. Al Buxoriy Abu Abdullox Muhammad Ibn Ismoil. Hadis: Al-jome' as-Sahih" (Ishonarli to'plam). 4 jildlik. - Т.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991, 1992, 1994, 1996.

16. Asqarova U. Milliy g'urur tarbiyasi: (Mehribonlik uylari misolida). - Т.: O'qituvchi, 2003.

17. Асмолов А. Г. Мы обречены на толерантность// семья и школа. 2001. -№11-12.-С.32-35.

18. Асмолов А. Г. Толерантность: различные парадигмы анализа // Толерантность в общественном сознании России. — М.,1998.

19. Бардьер Г.Л. Социальная психология толерантности. - СПб.: Изд- во, СПбГУ, 2005.

20. Бондарева Г. Формирование толерантной личности школьника // История: Приложение к газ. “ Первое сентября”: - 2002. - май (№20). — С. 13- 14.

21. Васильев В.А К вопросу о толерантности в современной России // Социально-гуманитарные знания. - 2000. - №3. — С. 231-262.

22. Век толерантности: Научно-публицистический вестник. М.: 2001.-264 с.

23. Вульфов Б.З. Воспитание толерантной личности: сущность средства // Внешкольник. 2002. - №6. - с. 12-16.

24. Гараджа В.И. Толерантность и религиозная нетерпимость // Философские науки. 2004.- № 3 - С. 18-31.

25. Гершунекый Б.С. Толерантность в системе ценностно-целевых приоритетов образование Педагогика. 2002.№7-С.3-¹2.

27 Ishmukhammedov R.J.. Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. - Т. 2001 S.

28. Karimova E. Tolerantlik va hozirgi zamon. J. Falsafa va huquq. - Т., 2008. - .Y«3. - B.5

29. Кащенко О.О. Формирование толерантности подростков в

учреждении дополнительного образования: Дисс..канд.пед.наук. Магнитогорск, 2004. м»

30. K o m i l N . Tasavvuf yoki komil inson axloqi. -• T.: ‘YOzuvchi nashriyoti, 1996.

31. Кукушин В.С. Воспитание личности в полном социуме: Пособие для учителя. - Ростов-н/Д: ГиНГО, 2002. -405с.

32. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lugati. - T.: G’afur g’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.

33. Nazruzova G. Naqshbandiya tasavvufiy ta’limoti va barkamol inson tarbiyasi. - Fal.fan.dok. ...diss.avtoref. - T., 2002.

34. Ruziyev A. Referent guruh va ilk o’spirinlardagi tolerantlik masalasiga ijtimoiy-psixologik yondashuv. // J. Xalq ta’limi. - 2010. -B. 97-98.

35. Семькина Е.Ю. Формирование невербального общения учащихся общеобразовательной школы: Дис. канд. пед.наук. - Магнитогорск, 2001.

36. Словарь-справочник по социальной работе. Под.ред. проф. Е.И.Холостовой. - М., 1997.

37. Степанов П.В. Педагогические условия формирования толерантности у школьников-подростков: Дис. ...канд. пед.наук. - М., 2002.

38. Tarbiya: (ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya). / Tuzuvchi M.N.Aminov. - T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

39. Falsafa: ensiklopedik lugat. — T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

40. Qodirova 3. Yoshlarda tolerantlikni rivojlantirishning ba’zi masalariga doir. // J. Falsafa va huquq T., 2008. - №. - B.42.

41. Qodirova Z.R., Sharipov A.J., Alimasov V.A., Karimova E., Madayeva Sh.O. Yoshlar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy

masalalari. - T., 2006.

42. Hoshimov K., Safo Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. — T.: O'qituvchi, 2010.

43. Xusniddinov 3. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik. - T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2006. — 164 b.

